



SUKUK EMISSIYASINI TASHKIL ETISH ORQALI KAPITAL JALB QILISHNING AMALDAGI HOLATI

Sadullayeva Mohinur G'ayratjon qizi

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali*

ORCID: 0009-0006-1820-0870

mohinursadullaeva2@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada xalqaro moliya bozorida kapital jalb qilishda sukuklarni emissiya qilishning maqsadi, nazariy asoslari va ahamiyati yoritilgan. Sukuklarning an'anaviy obligatsiyalardan farqli xususiyatlari, sukuk emissiya qiluvchi mamlakatlar sonining o'zgarish dinamikasi va ularning mamlakatlar bo'yicha taqsimlanishi, sukuk sertifikatlarini muomalaga chiqarish bosqichlari hamda global qisqa muddatli sukuklar emissiyasi umumiy hajmi tahlil qilingan. O'zbekistonda sukuklarni joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: sukuk, qimmatli qog'ozlar, emissiya, fond bozori, islom moliyalashtirish.

ТЕКУЩЕЕ СОСТОЯНИЕ ПРИВЛЕЧЕНИЯ КАПИТАЛА ЧЕРЕЗ ОРГАНИЗАЦИЮ ЭМИССИИ СУКУК

Садуллаева Моҳинур Гайратжон қизи

Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан

Шахрисабзский филиал Ташкентского химико-технологического института

Аннотация. В статье освещаются цель, теоретические основы и значение эмиссии сукук в привлечении капитала с международного финансового рынка. Были проанализированы отличительные особенности сукук от традиционных облигаций, динамика изменения количества стран-эмитентов сукук и их распределение по странам, этапы выпуска сертификатов сукук и общий объем глобальной краткосрочной эмиссии сукук. Приведены предложения и рекомендации по внедрению сукук в Узбекистане.

Ключевые слова: сукук, ценные бумаги, эмиссия, фондовый рынок, исламское финансирование.

THE CURRENT STATE OF CAPITAL ATTRACTION THROUGH THE ORGANIZATION OF SUKUK EMISSION

Sadullaeva Mokhinur Gayratjon kizi

*The Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan
Shahrisabz branch of Tashkent Institute of chemistry and technology*

Abstract. The article covers the purpose, theoretical foundations and significance of sukuk emission in attracting capital from the international financial market. The different characteristics of sukuk from traditional bonds, the dynamics of change in the number of sukuk issuing countries and their distribution by country, the stages of circulation of sukuk certificates and the total volume of global short-term sukuk emissions have been analyzed. Proposals and recommendations for the introduction of sukuk are presented in Uzbekistan.

Keywords: sukuk, securities, emissions, stock market, islamic financing.

Kirish.

Bugungi kunda kapital bozorida islom qimmatli qog'ozlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu esa xalqaro moliya bozorida islom qimmatli qog'ozlar muomalasini tashkil etish va bu orqali moliyaviy kapital jalb qilishning turli shakllarini o'rganish va uni amaliyotga joriy etish dolzarb ekanligini ifodalaydi.

O'zbekistonda keyingi yillarda sukuklarga qiziqish ortib borayotgani sezilsada, bu turdagi islomiy qimmatli qog'ozlar amaliyotga yetarli darajada keng joriy etilmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratishga ehtiyoj mavjudligini ta'kidlab o'tgan. Prezidentimizning 2021-yil 14-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-sonli Farmonida islom moliyalashtirish tamoyillari asosida "sukuk" obligatsiyalarini joriy etish bo'yicha alohida vazifalar belgilangan. Bu esa ushbu qimmatli qog'ozlarni amaliyotga keng joriy etish naqadar muhim va ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar sharhi.

Bir qator iqtisodchi olimlar sukuk obligatsiyalarini muomalaga chiqarish va bu orqali moliyaviy resurslar jalb qilishning ahamiyatli jihatlari va afzalliklari bo'yicha qator tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan.

Sukuk instrumentini mamlakat ichki talabini hisobga olib joriy qilgan mamlakatlar iqtisodiyot uchun qo'shimcha investitsiyalar jalb qilishga erishib kelmoqda. Bunda asosiy hajm musulmonlar ko'p istiqomat qiluvchi mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelsa ham, emitent mamlakatlar qatorida musulmonlar kam istiqomat qiluvchi mamlakatlar mavjudligi mazkur instrumentdan har qanday iqtisodiyotda samarali foydalanish mumkinligini anglatadi (Abrorov, 2023).

"Obligatsiyalar bozorining rivojlanishini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak, chunki u bank sektorini rivojlantirish va fond bozorlarini rivojlantirish kabi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi" (Pradhan va boshq., 2015).

Shamansurova va Norboyevlar (2024) ba'zi davrlarda davlatlar o'zining likvidlilik muommosini hal qilish uchun qisqa muddatli sukuklar emissiyasini amalga oshirgan. Uzoq muddatli yirik loyihalarni moliyalashtirishda aksincha uzoq muddatli sukuklardan foydalanishgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada xalqaro moliya bozorida kapital jalb qilishning shakli sifatida sukuk (islomiy obligatsiya)larni muomalaga chiqarish amaliyotini tashkil etishni o'rganishda qiyoslash, analiz, dinamik tahlil kabi metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonda islom moliyalashtirish (IS)ga qiziqish o'sganiga qaramay, 2016-yil oxirida hukumatdagi o'zgarishlar natijasida yaratilgan qulay siyosiy muhitda sanoat hududlarida biroz islom moliyalashtirish o'sishiga ta'sir etdi. O'zbekistonning islom moliyalashtirish tizimiga (IF)ga birinchi qo'shilishi 2003-yilga to'g'ri keladi. O'zbekiston Islom taraqqiyot bankiga (ISDB) qo'shilgan oxirgi Markaziy Osiyo mamlakati sifatida 2003-yilda a'zolik badali 13,4 million islom dinar mablag' bilan a'zo bo'lgan, bu esa ISDB umumiy kapitalining 0,03 foizini tashkil etadi. ISDBga a'zo bo'lganidan beri O'zbekiston qariyb 2,4 milliard AQSh dollari miqdorida mablag' olgan. Bu mablag'larning katta qismi ta'lim, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, elektr tarmoqlarini rivojlantirish va qurilish loyihalariga yo'naltirilgan. Mamlakat bo'yicha bugungi kunga qadar 103 ta loyiha amalga oshirilmoqda, ulardan 49 tasi yakunlandi va 54 tasi hali ham davom etmoqda. Ushbu yillar davomida ISDBning O'zbekistondagi operatsiyalari uchta asosan

ijara, istisna va murobaha shartnoma asosida an'anaviy bank liniyalari orqali amalga oshirildi (Asadov, 2024).

Islom moliya tizimini keng tarqalishiga va qo'llanishiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, islom moliyasi tizimini avvaliga musulmon ko'p istiqomat qiluvchi mamlakatlar joriy etgan bo'lsa, keyinchalik esa u muqobil moliyalashtirish tizimi sifatida jahonning qolgan davlatlarida tarqala boshlagan. Bugungi kunda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ham bu tizimdan samarali foydalanib kelinmoqda. Bu esa uning salmog'i ortib borayotgani ko'rsatadi.


Sukukning maqsadi-qaytarishlilik va to'lovlilik asosida investorlar mablag'ini loyihani moliyalashtirish uchun jalb etishdir. Sukukni chiqarish shunday tartibga solinishi lozimki, bir tarafdin, investorlarni himoya qilish va ularga qo'yilmalarning maqbul daromadlilikini ta'minlash va ikkinchi tomondan – shariat talablarini qondirish imkoniyati bo'lishidadir.

So'nggi yillarda Islom moliya bozori hajmi keskin o'sib bormoqda. U 2023-yildagi 7,16 milliard dollardan 2024-yilda 7,99 milliard dollargacha o'sishi prognoz qilgan edi va unda o'rtacha yillik o'sish sur'ati (CAGR) 11,6% ni tashkil qiladi.

Tarixiy davrda kuzatilgan o'sishni bir necha omillar bilan izohlash mumkin, masalan, shariat me'yorlariga mos mahsulotlar va amaliyotlarga talabning oshishi, neft boyliklari tufayli yangi qiziqishning kuchayishi, moliyalashtirishda xatarlarni taqsimlashga e'tibor, halol sektorlarga katta sarmoyalar va islom bank xizmatlarini kengaytirish. Yaqin bir necha yil ichida islomiy moliyalashtirish bozorining jadal o'sishi kutilmoqda. 2028 yilda u o'rtacha yillik o'sish sur'ati 11,7% bilan 12,45 milliard dollarga ko'tarilishi o'rganilgan. Prognoz davrida kutilayotgan o'sish islom moliya sanoatining kengayishi, musulmonlar sonining ko'payishi, axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatli investitsiyalarga e'tibor qaratish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va tartibga solish va islom moliyasining globallashuvi kabi bir qancha omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu davrda kutilayotgan asosiy tendentsiyalar qatoriga barcha mahsulot va xizmatlarni olishning elektron usullariga o'tish, moliyaviy mahsulotlarda innovatsiyalar, yangi Islomiy birja savdo fondlarini (ETF) ishga tushirish va moliyaviy texnologiyalarni birlashtirish kiradi.

So'nggi yillarda islomiy moliya bozori jadal rivojlanmoqda. U 2024-yildagi 7,99 milliard dollardan 2025-yilda 8,94 milliard dollargacha o'sib, yillik murakkab o'sish sur'ati (CAGR) 11,9 foizni tashkil etadi. Ushbu tarixiy davrdagi o'sishni shariatga mos mahsulotlar va amaliyotlarga bo'lgan talab, yangi qiziqishlarni uyg'otgan ulkan neft boyliklari, moliyalashtirishda tavakkalchilikni taqsimlash muhimligi, halol sektorlarga katta sarmoya kiritilishi va islom banki xizmatlarining kengayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin (Report, 2025).

Islom moliyasi aktivlarining mamlakatlar kesimidagi taqsimlanishini tahlil qiladigan bo'lsak, unda yetakchi mamlakatlar sifatida Malayziya, Saudia Arabistoni, Eron yuqori o'rinlarni egallaydi.




1-rasm. Islom moliyasi aktivlariga ega top mamlakatlar, mlrd.AQSH dollar (2022-yil)

Manba: Islamic finance development report (2023) ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.


Yuqoridagi rasmdan shuni ko'rsak bo'ladiki, islom moliyasining deyarlik 1/3 qismi kapitali Eron davlatiga tegishli bo'lib (1.522 milliard AQSh.dollari), Saudiya Arabiston, Malayziya ikkinchi va uchinchi o'rinda (1.017 va 666 milliard AQSh. dollari). 2022-yilda islom moliyasining asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilsak. Eron o'tgan yilgi ko'rsatkichlarga qarasa ham birinchi o'rinni egallab turganini ko'rsak bo'ladi. 1 milliard 39 million AQSh. dollari bilan 2021-yilda peshqadamlikni olgan Eronning bu yil ham deyarlik yarim baravarga aktivlarini oshirish orqali eng yirik aktivi bor mamlakat bo'lib qolmoqda. Saudiya Arabistonida ham xuddi shu holat kuzatilgan, 606 million aktivlar bilan yilni tugatgan Saudiya Arabistoni 2022-yilga kelib salkam 2 baravarga o'z aktivlarini ko'paytira olgan. Uchinchi o'rindagi Malayziya davlati esa eng tez aktivlarni ko'paytirgan deb hisoblasak bo'ladi. 2021-yilga nisbatan roppa rosa uch barobarga aktivlarni ko'paytira olgan mamlakatdir.

"Thomson Reuters" agentligi tomonidan chop etilgan "Islamic finance development report 2022" ma'lumotlariga ko'ra, jahonda 136 ta mamlakat islom moliyasini to'liq yoki ayrim elementlarini joriy etgan bo'lib, ularning tarkibida ko'p miqdorda musulmon aholi yashovchi mamlakatlardan tashqari Buyuk Britaniya (aholisining 4,4 %ini musulmonlar tashkil etadi), AQSH (0,9 %), Singapur (15,6 %), Shveysariya (5,2 %), Kanada (3,2 %), Avstraliya (3,2%), Fransiya (4 %), Germaniya (3,5 %) va Rossiya (15 %) singari mamlakatlarda ham islom moliyasi instrumentlaridan foydalanib kelinmoqda. Ushbu tadqiq qilingan davrda jami emissiyaning 54,5% yoki 877,4 mlrd.AQSH dollari Malayziya davlati hissasiga to'g'ri keladi. Malayziya 8,5 ming marotabadan ortiq emissiyani amalga oshirgan hisoblanib, bu o'z navbatida, 1155 marotaba sukuk emissiya qilgan Bahrayndan 8 barobar ko'pdir. Malayziya emissiyalarini asosan milliy valyutada amalga oshirgan. Chiqariluvlar qiymati bo'yicha ikkinchi yirik ko'rsatkich Saudiya Arabistonida bo'lib, u 216,8 mlrd. AQSh dollari yoki 13,5%ni tashkil etadi. Keyingi o'rinlarda esa Indoneziya 148,3mlrd. AQSh dollari (9,2 %), BAA 102,2 mlrd. AQSh dollari (6,3 %) va Turkiya 84,7 mlrd. AQSh dollari (5,3 %) qiymatidagi sukuk chiqargan. Ushbu 5 mamlakat jahondagi sukuklarning deyarli 90 %iga egalik qiladi. Jumladan, O'rta Osiyo mamlakatlaridan Qozog'istonda ham 77 mln. AQSh dollari qiymatida sukuk emissiyasi amalga oshirilganini ko'rishimiz mumkin.



2-rasm. Sukuk emissiya qiluvchi mamlakatlar sonining o'sish tendensiyasi (IIFM, 2022)

Yuqorida aytib o'tilganidek, sukuk islomiy sekyurizatsiyalash deb ataladi. Buning asosi esa qimmatli qog'ozning biror-bir aktiv bilan bog'liqligidir.



3-rasm. Sukuk sertifikatlarini muomalaga chiqarish bosqichlari

Manba: muallif ishlanmasi.

Sukuk (islomiy obligatsiya yoki “shariatga mos obligatsiya”) — mavjud yoki kelajakdagi portfelidagi aktivlarga egalik qismini ifodalovchi islomiy moliyaviy sertifikatdir. Ularni shuningdek, an’anaviy obligatsiyalarning islomiy turi deb hisoblash mumkin.

Shariat (islom qonunlari) foiz to’lash (ribo) evaziga qarz berishni ta’qiqlaydi, bu sudxo’rlik xususiyatiga ega sifatida ko’riladi va islomiy moliyada obligatsiyalar ta’qiqlangan.

Sukuk an’anaviy obligatsiyalarga muqobil variantdir. Islomiy va an’anaviy obligatsiyalar quyidagi xususiyatlarga ega:

- ❖ Investorlar daromad olish xarakteriga ko’ra an’anaviy obligatsiyalar investorlarga qat’iy foiz to’lovlarini taqdim etadi, sukuk esa investorlarga asosiy aktivdan olingan foydadan ma’lum ulushni olish imkonini beradi;
- ❖ Qimmatli qog’ozlar orasida sukuk va obligatsiyalarga investitsiya qilish nisbatan kamroq xavfli sifatida ko’riladi;
- ❖ Sukuk va obligatsiyalar dastlab emitentlar tomonidan investorlarga sotiladi. Keyinchalik, ikkala qimmatli qog’oz ham birjada sotiladi.

Islomiy va an’anaviy obligatsiyalar o’rtasida bir nechta muhim farqlar mavjud, ularga quyida to’xtalib o’tamiz.

1-jadval

Islomiy va an’anaviy obligatsiyalarning farqli xususiyatlari

Muhim jihatlari bo’yicha tavsiflash	Sukuk	Obligatsiya
Qimmatli qog’ozga egalik qilish	Aktivga qisman egalik qilish	Qarz majburiyati
Mos kelishlik jihati	Shariatga mos keladi	Chiqarilgan mamlakat/hududga mos keladi
Narx belgilash	Asosiy aktivning qiymatiga asoslanadi	Emitentning kreditga layoqatlilikiga asoslanadi

Manba: Corporate Finance Institute sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Qisqa muddatli sukuklarga to'xtalib o'tsak. Qisqa muddatli sukuk – so'ndirilish muddati 12 oy ya'ni 1 yil ichida amalga oshiriladigan sukuk turi hisoblanadi.

2-jadval

2001-yildan 2022-yilgacha global qisqa muddatli sukuklar emissiyasi davlatlar kesimida

Davlatlar	Emissiya qilingan sukuklar soni	Miqdori(million AQSH \$ da)	Umumiy qiymatdagi ulushi
Malaysiya	4360	395,919	63.97%
Turkiya	1022	44,384	7.17%
Gambiya	738	446	0.07%
Bahrayn	429	24,199	3.91%
Bruney	310	14,845	2.40%
Indoneziya	183	15,838	2.56%
Pokiston	42	931	0.15%

2001-yildan 2022-yilda qisqa muddatli sukuklar emissiyasini davlatlar kesimida ko'rib chiqadigan bo'lsak, Malayziyaning ushbu yillar oralig'ida global qisqa muddatli sukuk emitentlarining bozor ulushi 63,97% (395,9 milliard AQSh dollari) ni tashkil etgan. Qisqa muddatli bozordagi boshqa bir qator qiyinchiliklar Bahrayn, Bruney, Indoneziya, Turkiya, Qatar va Bangladesh davlatlarida kuzatilgan. Chunki ushbu emitentlar guruhi tashkil etilganidan buyon qisqa muddatli bozorning 18,0% atrofida hajmini egallab kelgan. Malayziyada joylashgan Xalqaro islomiy likvidlikni boshqarish (IILM) qisqa muddatli emissiyalarini 2013-yilda boshlagan va 2022-yil davomida eng ko'p sukuk chiqargan. Indoneziya, Turkiya, Pokiston, Bruney va Bangladesh hukumatlari ham qisqa muddatli sukuk emissiyalarini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratishgan va emissiya hajmini oshirishgan.

3-jadval

Sukuklarning mamlakatlar bo'yicha taqsimlanishi (31.12.2023 holatiga)


Buyuk Britaniya	0,7	0,08%	Millatlararo	23,193	2,77%
Birlashgan Arab Amirliklari	51,7	6,14%	Tanzaniya	0,01	0,00%
Turkiya	29,8	3,53%	Tunis	0,002	0,00%
Togo	0,2	0,03%	Filippin	1	0,12%
Malayziya	317,3	37,67%	Janubiy Koreya	0,2	0,02%
Janubiy Afrika	0,035	0,00%	Bahrayn	12,3	1,46%
Senegal	0,806	0,10%	Bangladesh	2,8	0,33%
Saudiya Arabistoni	218,4	25,94%	Bruney Darussalam	0,3	0,04%
Qatar	15	1,78%	Misr	2,1	0,25%
Pokiston	24	2,85%	Gambiya	0,2	0%
Ummon	8,4	1,01%	Gonkong	1	0,12%
Nigeriya	2,6	0,31%	Indoneziya	122,7	14,57%
Mali	0,3	0,03%	Iordaniya	0,8	0,09%
Maldiv Orollari	0,3	0,04%	Quvayt	6	0,72%

Manba: muallif ishlanmasi IIFM Sukuk Report 2024 ma'lumotlari asosida.

Sukukning mamlakat bo'yicha global ishlab chiqarish hajmi 87,79% ni tashkil etadi, bu faqat beshta davlat, ya'ni Malayziya — 37,87%, Saudiya Arabistoni — 25,55%, Indoneziya —

14,65%, BAA — 6,17% va Turkiya — 3,55%. Keyingi o‘rinlarda esa Qatar — 1,79%, Bahrayn — 1,46% va Pokiston — 2,87%.

2023-yilda 72,7 milliard AQSh dollari miqdoridagi qisqa muddatli sukuk emissiya qilingan, bu ko‘rsatkich 2022-yilda 62,7 milliard AQSh dollar teng bo‘lgan. Bu sukukning qisqa muddatli ishlab chiqarish hajmi 10 milliard AQSh dollariga yoki 15,95 foizga o‘shirishini anglatadi. Malayziya qisqa muddatli sukuk bozorida so‘zsiz yetakchi hisoblanadi va uning 2001-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan global qisqa muddatli emissiyasi umumiy hajmidagi bozor ulushi 62,31% (430,9 mlrd AQSh dollari)ni tashkil etadi. Qisqa muddatli bozordagi boshqa doimiy emitentlar Bahrayn, Bruney, Indoneziya, Turkiya, Qatar va Bangladesh, ta’kidlash joizki, ushbu emitentlar guruhi tashkil etilganidan buyon umumiy qisqa muddatli bozorning taxminan 20,05 foizini tashkil etdi.



4-rasm. Jahon bo‘ylab qisqa muddatli sukuk emissiyasining umumiy hajmi (barcha valyutalarda 12 oy yoki undan kamroq muddatga) milliard AQSH dollarida (IIFM Sukuk Report 2024)

Malayziyada joylashgan xalqaro Islom likvidlikni boshqarish tashkiloti (IILM) 2013-yilda qisqa muddatli emissiyalarni, asosan AQSh dollarida boshlagan va shu vaqtdan beri IILM qisqa muddatli qattiq valyutadagi sukuklarning yagona emitenti hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Qimmatli qog‘ozlar bozorida indeksning o‘zgarishi mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishidagi holat va undagi konyukturani ifodalab beruvchi ko‘rsatkichlardan hisoblanadi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining boshlanishi ham fond bozorida instrumentlarning vaziyatga bardosh bera olmasligi bilan kuchayib ketdi.

Sukuklar esa inqiroz sharoitida ham mustahkamligini yo‘qotmay, hatto rivojlanish tendensiyasini saqlab qola olganligi bilan investorlarning bu qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga qiziqishi ortishiga sabab bo‘lgan. Inqiroz davrida jahon amaliyoti tajribasida shuni ko‘rishimiz mumkin, sukuklarni chiqarish qulay iqtisodiy muhitni saqlab qola olish imkoniyatini yaratadi. Bundan kelib chiqadiki, sukuklar fond bozorini inqirozga nisbatan bardoshlilikini oshirishi bilan ham xarakterli sanaladi.

Iqtisodiyotga investitsiyalar jalb qilish funksiyasidan kelib chiqib, ushbu islomiy qimmatli qog‘ozning iqtisodiyotdagi davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish va “yashirin” iqtisodiyotni qisqartirish roli orqali iqtisodiyotni rivojlantirish kabi muhim ikkita vazifani bajarishi bilan ahamiyatli.

Yuqoridagi tahlillardan shuni xulosa qilishimiz mumkin, islom qimmatli qog‘ozlari jahon moliyaviy inqirozi davrida ham, pandemiya davrida ham iqtisodiy inqirozlarga bardoshlilikini namoyon qilgan va yuqori risklardan holi moliyalashtirish instrumenti hisoblanadi.

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

Abrorov S. (2023) Sukuk bozorini rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2023-yil, may <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/5/2>

Asadov A. (2024) Empirical Analysis of Demand for Sukuk in Uzbekistan. *Economies* 2024, 12(8), 220 p4 <https://doi.org/10.3390/economies12080220>

Baydaulet E.A. (2019) Islomiy moliya asoslari-Toshkent: O'zbekiston NMIU,2019.-432b,78-bet http://old.muslim.uz/pdf_2029/Islomiy_%20moliya_%20asoslari.pdf

CFI Team (n.d.). Sukuk. [online] Corporate Finance Institute. Available at: <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/career-map/sell-side/capital-markets/sukuk/>.

IIFM Sukuk Report (2024), A comprehensive study of the global sukuk market (13th Edition) p 97.

Pradhan R.P., et al. (2015) Bond market development and economic growth: The G-20 experience. // *Review of Applied Management Studies*, Vol. 13. Issue 1, January — June, 2015. — p. 51-65.

Report (2023) ICD-LSEG Islamic finance development report (2023). Navigating uncertainty p7. https://icd-ps.org/uploads/files/ICD_LSEG_IFDI_REPORT_20231715587354_1336.pdf

Report (2025) Islamic Finance Global Market Report Thebusinessresearchcompany.com. Available at: <https://www.thebusinessresearchcompany.com/report/islamic-finance-global-market-report>.

Researchandmarkets.com. (2024). Islamic Finance Market Size, Competitors & Forecast to 2028. [online] Available at: <https://www.researchandmarkets.com/report/islamic-finance-market#cat-pos-1>

Shamansurova Z., Norboyeva M. (2024) Qisqa muddatli sukuk emissiyasi bo'yicha statistik tahlil. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024-yil, may https://www.researchgate.net/publication/381436744_qisqa_muddatli_sukuk_emissiyasi_bo'yicha_statistik_tahlil